

# MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

8 / 2019

Ushbu sonda:

YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA IRRATSIONAL  
USTANOVKALARGA MOYILLIKNING  
UMUMIY XUSUSIYATLARI

2 »»

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR  
PATOLOGIYASI VA REABILITATSIYASI

9 »»

O'QUVCHILARNING HUQUQIY BILIMLARNI  
O'ZLASHTIRISH DARAJASINI EMPIRIK  
O'RGANISH TAHLILI

25 »»

BOSHLANG'ICH SINF AQLI ZAIF O'QUVCHILARIDA  
YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING  
SAMARALI YO'LLARI

37 »»



## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV  
Boris BLYAXER  
Baxodir SOBIROV  
Risboy JO'RAYEV  
Sevara ZUPARXODJAYEVA  
Lola MO'MINOVA  
Vahobjon RAJAPOV  
Nargiza RAXMONQULOVA  
Sherzod SHERMATOV  
Shavkat SHARIPOV

## Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

## Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

## Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

## Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga  
yo'naltirish va psixologik-pedagogik  
respublika tashxis markazi  
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jumaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT» dan olindi,  
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan  
chiqa boshlagan.

## MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02  
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

## MUNDARIJA

- 2 P.S.ERGASHEV, M.A.XOLMATOV, Yuqori sinf o'quvchilarida irratsional ustanovkalariga moyillikning umumiy xususiyatlari
- 4 Z.SHAROPOVA, O.U.AVLAYEV. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning emotsional xususiyatlari
- 7 D.Z.JO'RAQULOVA. O'smir shaxsi rivojlanishining psixologik xususiyatlari
- 9 D.A.IBRAGIMOVA, S.M.UMAROVA, G.X.HATAMQULOVA. Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuv masalalari
- 9 N.Q.AXMEDOVA. Maktabda ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish (TALIS)
- 10 Z.R.BAKIYEVA, H.M.FOZILJONOV. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalarni qo'llash
- 13 D.M.XAKIMOVA. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish vositalari
- 14 H.M.MAMATOVA. Umumta'lim maktab o'quvchilarini o'qitishda kreativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari
- 16 A.U.XAITOV. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'smirlarda shakllangan noto'kislik kompleksining sport faoliyatidagi korreksiyasi
- 18 Z.SH.MAMARAIMOVA. Boshlang'ich sinf darslarida fanlararo bog'liqlikning ahamiyati
- 19 G.O.NAJMIDDINOVA. Makabgacha yoshdagi bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish
- 21 A.A.BOLTAYEV. Voleybolchilarda ayrim jismoniy va funksional ko'rsatkichlarning turli yuklamalar ta'sirida o'zgarish dinamikasi
- 23 D.X.SHODMONQULOVA. O'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari
- 25 B.JO'RAYEV. O'quvchilarning huquqiy bilimlarni o'zlashtirish darajasini empirik o'rganish tahlili
- 27 K.G.MALIKOV, A.A.NABIYEV. Qiyshiq burchakli "dimetrik proeksiyalar" dan birining dastlabki tahlili
- 28 A.T.USMONOVA. Rahbar imijini shakllantirish - umumta'lim maktabi imijini rivojlantiruvchi omil sifatida
- 30 S.SAYDALIYEV, F.S.RASULOVA, O'.XOLMURODOV. Ko'rinishlar mavzusiga oid mashg'ulotlarni tashkil etishning o'ziga xos uslubii
- 32 YU.G'.MAHMUDOV, A. TURSUNOV. Fizikadan ekologik mazmunda masala yechishda o'quvchi o'quv-ijodiy faoliyati bosqichlari va omillar
- 34 G.A.ERGASHEVA. Ta'lim tizimida matematika ta'limining ahamiyati
- 36 S.M.ABDUXAMIDOV, M.I.ASROQULOVA. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda didaktik tamoyillarga yondashish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari
- 37 B.X.XUSNIDDINOVA. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarida yozuv malakalarini shakllantirishning samarali yo'llari
- 39 SH.R.SAMAROVA. Ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish
- 42 C.M.ЭПМАТОВА. Способы повышения уровня противопожарных зна-



shiriqni to'g'ri bajara olmadi, logoped yordamiga tayanib javob berdi, 3 ta (30%) o'quvchi vazifani bajarishdan voz kechdi.

3-topshiriq – rasmdagi predmetlar sifatini nomlashda 10 nafar (100%) o'quvchidan topshiriqni to'g'ri bajardi – 1 nafar (10%), logoped yordamiga tayanib 5 nafar (50%), 3 nafari (30%) topshiriqni bajarishda xatolarga yo'l qo'ydi, 1 nafar (10%) o'quvchi topshiriqni bajara olmadi.

Ma'lumki, ta'lim sifati ushbu jarayon natijalarining ob'ektiv baholanishiga bog'liq. Shu ma'noda, olib borilgan tajriba-sinov ishlari jarayonida qo'llanilgan metodikalarni natijalarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun ta'lim jarayonida rivojlantiruvchi usul va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqildi.

Aqli zaif bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish yo'l va usullari bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga tayanildi [5]:

1. Nutqiy materialni tanlashda soddadan murakkabga qarab borish. Bunda aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha ishning turli bosqichlarida korreksiya ishlari oddiy topshiriqlardan murakkab topshiriqlarga o'tishni talab etadi.

2. Nutq va tafakkurning o'zaro bog'liqligi tamoyili.

3. Aqli zaif bolalarning nutqiy materialni idrok qilishi, tushunishi va ularni amaliy egallashiga qaratilgan mashqlar izchillik va ketma-ketlilik, ko'rgazmalilik tamoyillariga tayanilgan holda tuzildi.

4. O'quv materialini tashkil etishda mavzuli - vaziyatboplik tamoyiliga tayanildi. Ya'ni, aqli zaif bolalar bilan ishlash tajribasida qo'llangan, ko'rgazmali ravishda keng yoritish mumkin bo'lgan vaziyatlar, bola faoliyatidagi voqea-hodisalar, buyumlar mazmuni ifodalangan nutqiy materiallar tayyorlandi.

5. Nutq o'stirish ishlarini amalga oshirishda differensial (tabaqalashgan) va individual yondashish tamoyili, ya'ni topshiriqlar tizimi aqli zaif bolalarning nutqiy imkoniyatlarini, yosh va individual hususiyatlarini inobatga olgan holda tayyorlandi.

Nazariy tadqiqotlar va sinov-tajriba ishlarining natijalari quyidagi pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi:

– aqli zaif o'quvchilarda yozuv malakalarini shakllantirish bo'yicha olib boriladigan korreksion-logopedik ish samaradorligini oshirish maqsadida o'quvchilarning orfografiyani o'zlashtirishdagi tayyorlik darajasini har tomonlama tashxislash natijalariga tayanish, individual ishning maqsadlarini to'g'ri aniqlash va belgilash, korreksion-logopedik jarayonning qay darajada muvaffaqiyatli kechayotganining monitoring natijalariga e'tibor berib borish muhimdir;

– guruhlarni jamlashda o'quvchilarning yoshini emas, dastavval ularning orfografiyani o'zlashtirishdagi og'zaki-nutqiy, funksional va operatsional tayyorlik darajasini hisobga olish lozim;

– korreksion-logopedik ta'lim jarayonida o'quvchilarning korreksion-logopedik mashg'ulotlarga va tilni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradigan zamonaviy multimediyavi vositalaridan imkon darajada keng foydalanish;

– aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilarda yozuv malakalarini shakllantirishga qaratilgan differensiallashgan ishni maxsus (korreksion-pedagogik) shart-sharoitlarni hisobga olgan holda dastur variantlari asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. Аксёнова А.К. Методика обучения русскому языку во вспомогательной школе. – М.: Просвещение, 2004.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika). – T., 2007.
4. Raxmanova V.S. Ona tili o'qitish maxsus metodikasi. – T.: Moliya-iqtisod, 2007.
5. Mamedov K., Shoumarov G'. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. – T.: 1994.

## TA'LIM JARAYONIDA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNI O'QISHGA QIZIQTIRISH

Sh.R.Samarova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

Процесс обучения является совокупностью, включающей деятельность учителя, сотрудничество и мотивацию к учению, деятельность ученика. Таким образом, индивидуальный подход в обучении обеспечивает: устранение трудностей в обучении отдельных школьников; возможность развития всех сил и способностей учащихся.

**Ключевые слова и понятия:** индивидуальный подход, индивидуальное обучение, индивидуальные способности личности, личность ученика, учитель.

The learning process is a set that includes the activities of the teacher, cooperation and motivation to learn, the activities of the student. Thus, the individual approach in training provides: elimination of difficulties in training of separate school students; possibility of development of all forces and abilities of pupils.

**Key words and concepts:** an individual approach, individual training, individual abilities of the person, the personality of the student teacher.



Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv zarurligi ko'pgina olimlar tomonidan tan olingan. Ammo amaliyotda o'qituvchilar har bir o'quvchi shaxsiga individual yondashishda muayyan kamchiliklarga yo'l qo'y-moqdalar. Bunga maktabda o'qituvchilarning bola haqida ko'p gapirishlari dalil bo'ladi. Chunki maktabda o'quvchining qobiliyatlari, shaxsning asosiy xislatlari haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot beradigan mutaxassis yo'q.

Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi. Individual yondashuvning vazifasi – rivojlanishning individual usullarini aniqlash, bolaning imkoniyatlarini, har bir shaxsning faolligini ta'minlashdan iborat.

Talimni modernizatsiyalashtirish talim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. O'quvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog'liq funksiyalari talimning shaxsiga yo'naltirilgan tizimi vositasida amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi talim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, talim tizimi turli shaxsga xos barcha xususiyatlarini (erkinlikka intiluvchanlik, mustaqillik, shaxsiy fikrlarning mutloq o'ziga xos tizimga ega bo'lishi, o'z-o'zini tasdiqlash ehtiyojining mavjudligi) hisobga olgan holda, o'quvchiga uning o'ziga xosligi (individualligi)ni rivojlantirish imkonini berish, uning o'z-o'zini rivojlantirishi, namoyon etishi uchun sharoit yaratish lozim. Zero, har qanday o'quvchi o'ziga va faqat o'zigagina xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirish va namoyon etishga intiladi.

Talimda o'quvchi shaxsiga faoliyatli yondashuv bu tizimning konsepsiyasini tashkil etadi. Bunda shaxs "sub'ektiv" kategoriyasi erkinlikka intilish, yaxlitlik, o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish va faollashtirish xususiyatlari asosida anglashiladi. O'quv jarayoni hamda uning tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod, shakl, usul, vositalar o'quvchi uchun shaxsan ahamiyatga ega bo'lgan, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatida tatbiq etiladi.

Inson ongi hamisha sub'ektiv mohiyatga egadir. O'quvchi muayyan bilimlarga nisbatan befarq bo'lib qolmay, bilimlar uning uchun shaxsiy mazmunga ega bo'lsagina puxta o'zlashtiriladi.

O'qituvchi bunga o'quvchida o'quv predmetiga nisbatan ijobiy sub'ektiv munosabatni tarkib toptirish natijasiga erishadi.

O'quvchining ruhiy xususiyatlarini o'rganish o'zlashtirilayotgan bilimlarning o'quvchiga shaxsan qiziqarli va kerakli bo'lishi zarurligi, aks holda ular shubhasiz rad etilishini ko'rsatadi. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar sub'ektivlashadi, o'ziga xos individual jihatlarga ega bo'ladi. Teskari jarayonda individual tasavvur va shaxsiy fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilim-

lar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi. Bu esa o'quv jarayonini noan'anaviy usulda tashkil etishning muhim shakllarini talab etadi. Shunday qilib, faoliyat shaxs rivojlanishining asosiy substansiyasi hisoblanadi. Shaxs faoliyati uning ichki hissiyotlari bilan bog'liq. Shaxs motiv, hissiyot va shaxsiy fikr vositasida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'z darsida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullardan foydalanib shunday shart – sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki, natijada o'quvchi uchun dastlab neytral bo'lgan ob'ekt kutilmaganda sub'ektiv xususiyat kasb etsin.

O'quv mashg'ulotlar turlicha: dialogik – munosabat, tadqiqot – izlanish, ko'rgazmali – tasviri, reproduktiv, o'yin – dars, teatrlashtirilgan dars, seminar.

Bunday mashg'ulotlarning mazmuni va mavzusi bevosita shaxs faoliyatiga yondashuv konsepsiyasi va tamoyillariga mos kelib, ular bola ichki dunyosi, tafakkuri va shaxsiy hayotiy tajribasini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot-izlanuvchanlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar texnologiyasida markaziy o'rinni shaxsiy vaziyat egallaydi, u o'quvchini imkon qadar ko'proq topshiriqlarni bajarishga jalb etib, individual yoki jamoa bo'lib topshiriqlarning javobini topishga undaydi.

Tadqiqot-izlanuvchanlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlarning asosiy maqsadlaridan biri – topshiriq sifatida qo'yilgan muammolarga o'quvchining o'zi javob topishini ta'minlashdir. O'quvchining javoblari o'qituvchi va o'rtoqlarining javoblariga mutlaqo o'xshamasa-da, biroq, o'quvchi o'z javobidan qoniqish hosil qilsin, uning muammo yechimini shaxsan o'zi topa olganidan g'ururlana olishi muhimdir.

An'anaviy ta'lim mohiyatiga ko'ra o'qituvchi tomondan berilgan topshiriq va savollarga o'quvchini o'qituvchi tanlagan, o'zi uchun esa mutlaqo notanish tarzda fikrlashga majbur qiladi.

Tadqiqot – izlanuvchanlik mashg'ulotlarida qo'llaniladigan metodlar o'qituvchining bolalar bilan hamkorlik munosabatlariga, o'quvchilarning o'z bilimlarini o'zlari mustaqil rivojlantirish, axborot va ilmiy ma'lumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lish, plyuralizm hamda o'zгалar fikriga hurmat bilan yondashish kabilarga asoslanadi.

Tadqiqot – izlanuvchanlik yo'nalishidagi mashg'ulotlariga xos ta'lim texnologiyasi quyidagi algoritmlarga bo'ysunadi:

- |                      |                            |
|----------------------|----------------------------|
| 1. Qoidalar          | 1. Rag'batlantiruvchi asos |
| 2. Tanishish         | 2. Monokonstruksiya        |
| 3. Istaklar          | 3. Sotsiokonstruksiya      |
| 4. Jonlanish         | 4. Ijtimoiylashuv          |
| 5. Baholash          | 5. Ma'lumotlar             |
| 6. Bilishga intilish | 6. Refleksiya              |

Tadqiqot-izlanuvchanlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlarning asosiy qoidasi: "O'zing bilgancha bajar, o'z layoqating, qiziqishlaring va shaxsiy tajribangga asoslan, o'z xatoingni o'zing tuzat" kabi ko'rsatmalarda o'z ifodasini topadi.

An'anaviy ta'lim texnologiyasida asoslangan mashg'ulotlar esa "xuddi men kabi yoki mendan yaxshiroq bajar" qoidasiga muvofiq tashkillashtiriladi.



Demak, ta'lim har bir o'quvchining qiziqishi va bilish qobiliyatini o'quv faoliyatini tashkil etish jarayonida namoyon qilish imkoniyatini yarata olishi zarur.

Quyida bir qator psixologik mashqlarni tavsiya etamiz.

**Mantiqiy urg'uga e'tibor berish** ko'nikmasini shakllantirish maqsadida "Siz qanday insonsiz" testi o'tkaziladi.

**"Siz qanday insonsiz" (hazil-test)**

**Ko'rsatma:** Tafakkuringizning xususiyatini bilishni istasangiz quyidagi savollarga uzoq o'ylamasdan, savolning mazmuniga mos ravishda javob bering.

**Test savollari**

1. O'quvchi budilnikni soat 8 dan 9 ga qo'yib uyquga ketdi. U necha soat uxlaydi?

2. Zafarjonning 10 ta qo'yi bor edi. 9 tadan boshqa hammasi o'lib qoldi. Unda nechta qo'y qoldi?

3. Siz Toshkentda qo'nib Pekin-Moskva reysi bo'yicha uchadigan samolyotning uchuvchisiz. Reys haftada ikki marta bo'lsa, uchuvchining yoshi nechada?

4. Tungi qorovul kunduzi o'lib qoldi. Unga nafaqa to'lanadimi?

5. Erkak kishi o'zining bevasiga uylanishi mumkinmi?

6. Avstraliyada ham 9 may bormi?

7. Oylar 30-31 kun bilan tugaydi. qaysi oyda 28 bor?

8. Siz notanish qorong'i xonaga kirib qoldingiz, u yerda benzin va gaz bilan yonadigan chiroqlar bor. Siz birinchi bo'lib nimani yoqishingiz mumkin.

9. Arxeologlar er.av. 25-yilda chiqqan tangani topib olishdi. Shunaqasi ham bo'lishi mumkinmi?

10. Ota va o'g'il avtohalokatga uchrashdi. Otasi shu zabotiyog halok bo'ldi, o'g'lini esa kasalxonaga keltirishdi. Operatsiya vaqtida xirurg bolani ko'rib "Voy xudoyim-yey, bu mening o'g'limku!" deb yubordi. Shunday ham bo'lishi mumkinmi?

11. 6 ta sham yonib turgan edi. 4 tasini o'chirib qo'yishdi. nechta sham qoldi?

12. 2 kg tosh 1 kg va yarimta g'ishtga teng og'irlikka ega. G'ishtning og'irligi qancha?

13. Qo'llarda 10 ta barmoq bor. 10 ta qo'lda nechta barmoq bor?

14. 1 dan 100gacha bo'lgan qatorda nechta 9 raqami bor?

15. Yog'ochni 12 bo'lakka bo'lish uchun uni nechta marta arralash kerak?

16. Andijondan Toshkentga va Toshkentdan Andijonga qarab ikkita poezd bir vaqtda yo'lga chiqdi. Andijondan Toshkentga qarab kelayotgan poezdning tezligi ikkinchisidan 3 marta katta. Uchrashish vaqtida ularning har biri Toshkentdan qancha masofa uzoqlikda bo'ladi.

17. Ko'p qavatli binoning 16-qavatida liliput(pakana) odam yashaydi. U har kuni ertalab ishga ketayotib liftda pastga tushib, so'ng ishga ketadi. Kechki payt ishdan kelayotganda esa 10-qavatgacha liftga ko'tarilib, qolganiga piyoda chiqib ketadi. U nima uchun shunday qiladi?

18. Vrach (hakim) bemorga 30 min. oralig'i bilan 3 ta ukol belgiladi. Bemor ularning hammasini qancha vaqt ichida oladi?

19. Bir kishi: "bu mening bolam, o'g'lim emas," deb ayanch bilan yig'lab o'tiribdi. Shunaqasi ham bo'lishi mumkinmi?

20. Abdulla aka 3 kishiga aka. Birorta ham ukasi yo'q. U kimga aka?

**Tahlil**

Savollarga javob berishda har bir to'g'ri javobga "+", noto'g'ri javobga "-" belgisi qo'yiladi. Faqat "-" belgili javoblarga hisoblab chiqiladi va shunga ko'ra sinaluvchining xarakteristikasi belgilanadi. 4,5,6,9,10,19-savollarga berilgan javoblarga izoh berish talab qilinadi. Izohlar asosli bo'lsagina (tavakkal, tasodifiy javoblar bo'lmasa) ular to'g'ri hisoblanadi.

**Javoblar**

1) 1 soat uxlaydi. 2) 9 ta qo'y. 3). Sinaluvchining yoshi. 4) Yo'q, chunki o'lgan odamga nafaqa berilmaydi. 5). Yo'q, chunki u kishining o'zi o'lib ketgan. O'lgan odam nafaqat xotining singlisiga, balki mutlaqo uylanolmaydi. 6) Ha, bu kun hamma joyda, kalendarida ham bor.

7) 28 Hamma oyda bor. 8) Gugurtni. 9) Yo'q u vaqtda tanga, tiyin bo'lmagan. 10) Ha, chunki xirurg - uning onasi ya'ni ayol kishi. 11) shamlar 6 ta 12) 2 kg. 13) 50ta barmoq. 14) 20 ta 9. 15) 11 marta arralash kerak. 16) Bir xil. 17) Bo'yi yetishmaydi. 18) Bir soatda. 19) Ha, (bu uning qizi) 20) Singlisiga aka.

Minuslar-noto'g'ri javoblar bo'yicha xarakteristika.

0-- geniy daho.

2-4- intellektual, o'tkir zehni, aqli.

5-7- mulohazali.

8-9-10-fikrlashi o'rtacha.

11-12 ta tafakkurida ayrim kamchiliklari bor.

Bu kabi mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlashga yordam beradi. Har bir pedagog, amaliyotchi psixolog o'z faoliyatini tashkil etishda o'quvchilarga individual yondashib, ularning qiziqishlarini aniqlashga va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratsa, kelajakda yetuk kasb egalarini tayyorlashga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Немов Р.С. Психология. В 2-х кн. – Кн. 1. – М.: 2003.

2. Психология. Учебник. Под. Ред. А.Крылова. – М.:1998.

3. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – T.: 2002. 1-2 kitob.

4. Karimova V. M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. – T.: 2000

5. Karimova V.M., Akramova F., Abdullayeva R. Pedagogika. Psixologiya. O'quv qo'llanma. TDIU. 2007.